QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI TAXIATOSH TUMANI H O K I M I Q A R O R I

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ TAQÍYATAS RAYONÍ H Á K I M I Q A R A R Í

2024-yil 8-noyabr | 281-13-215-Q/24 | Taxiatosh tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilish haqida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asoslanib, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalib kelayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun Taxiatosh tumanida 2025-yil uchun ish o‘rinlarini band etib qo‘yish maqsadida Taxiatosh tuman hokimligi **qaror qiladi:**

1. Taxiatosh tumani hokimining 2024-yil 12-oktyabr kungi “Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari 2025-yil uchun band etib qo‘yish haqida”gi 236-13-215-Q/24-sonli qarori 2024-yil 10-oktyabr kunidan jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta‘minlash haqida”gi Qonunning 17-moddasiga asoslanib, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan 3008 nafar shaxslarni tashkil qiluvchi 1.6 foiz (47 nafar shaxs) miqdorida, shu hisobdan:

a) nogironlar uchun 0.06 foiz – 2 nafar shaxsni;

b) 14 yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg‘iz hamda ko‘p farzandli ota-onalar uchun 0.7 foiz – 22 nafar shaxsni;

v) ta’lim muassasalarini bitiruvchi yoshlar uchun 0.5 foiz – 15 nafar shaxsni;

g) muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun 0.06foiz – 2 nafar shaxsni;

d) tuman aholi bandligiga koʻmaklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan nafaqa yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun 0.06 foiz – 2 nafar shaxsni;

e) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, jazoni ijro etayotgan yoki sud qaroriga koʻra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar koʻrilgan shaxslar uchun 0.06 foiz – 2 nafar shaxs

z) oilaviy zoravonlik natijasida javrlangan xotin-qizlar uchun 0.06 foiz -2 nafar shaxs miqdorida ish oʻrinlari belgilansin.

3. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini 2025-yil uchun band etib qoʻyish lozım boʻlgan korxonalar roʻyxati 1-ilovaga, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlari 2025-yil uchun band etib qoʻyish boʻyicha tuzilgan maxsus komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish oʻrinlari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10-aprel kunidan kechiktirmasdan ish oʻrinlarining qolgan qismi 75 foizini tashki qilish (ajratish yoki band etib qoʻyish) haqidagi, ya’ni har bitta kvota toifasi boʻyicha ish oʻrinlari band etib qoʻyiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va yechim boʻyicha chiqarilgan farmoyish nusxalarini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim qilish vazifalari yuklatilsin.

5. Korxona va muassasalar rahbarlari ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish oʻrinlarining koʻrsatib oʻtilgan miqdorini Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlari band etib qoʻyish tartibi haqida”gi nizomga koʻra belgilangan muddatlarda tashkil qilish (ajratish yoki band etib qoʻyish) va ish oʻrinlari sanitariya-gigiena me’yorlariga va xodim oʻz burchlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoyitlariga yarasha boʻlishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror talablari bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga “Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlari band etib qoʻyish tartibi haqida”gi nizomning 21-bandiga koʻra jarimaga tortiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi haqidagi Qonunini tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli (AV roʻyxat raqami №3163, 31.03.2019-yil) buyrugʻiga asos subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotda joriy etilganini hisobga olib, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga muhtoj aholi qatlamlariga tegishli shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorda ishga olgan idoralarga - har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam ish haqining 2 barobari miqdorida haq toʻlash tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi bilan tuzilgan shartnoma asosida aholi bandligiga koʻmaklashish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari hisobga olinsin.

7. Tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi ushbu qarorning tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga etkazib berilishini hamda uning ijrosi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

8. Quyidagilar:

- Taxiatosh tumani hokimining 2023-yil 10-oktyabr kungi “Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlari 2025-yil uchun band etib qoʻyish haqida”gi 224-13-215-Q/23-sonli qarori:

- Taxiatosh tumani hokimligining 2024 yil 12-oktabr kungi “ijtimoiy ximoyaga muhtoj va ish topishda qyinalayotgan shahslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarni 2025-yil uchun band qilish haqida”gi 236-13-215-Q/24-sonli qarori tuman Adliya boʻlimining 2024 yil 23-oktabr kungi 11/1-7/62-son taqdimnomasiga muvofiq bekor qilinsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining oʻrinbosarlari A.Amanov va U.Aytimbetov zimmalariga yuklatilsin.

Hokim **K.AYTBAYEV**

Taxiatosh tuman hokimining
2024-yil 8-noyabrdagi
281-13-215-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Тахиатош тумани бўйича 2025 йилда ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш
учун банд қилиб қўйилган иш ўринларига ишга жойлаштириш бўйича
МАНЗИЛЛИ ЖАДВАЛ

Т/р	Туманлар номи	Топшириқ белгиланган корхона номи	Корхонани ИНН рақами	корхонада ишловчилар сони	Жами банд қилинган иш ўринлари сони	шу жумладан:								
						14 ёшга тўлмаган болалари, ногиронлиги бўлган болалари бор ёлғиз отага ёки онага, шунингдек кўп болали оилаларнинг ота-оналарига	Умумий ўрта ва ўрта махсус таълим ташкилотларини, касб-ҳунар мактабларини, касб-ҳунар коллежларини ҳамда техникумларни тамомлаб, касбга эга бўлган ёшлар, «Меҳрибонлик» уйларининг битирувчилари, шунингдек олий таълим муассасаларининг давлат грантлари бўйича таълим олган битирувчилари	Муддатли харбий хизматдан бўшатилганлар	Ногиронлар учун	Пенсияолди ёшидаги шахслар учун	Жазони ўташ муассасаларидан ёки суднинг қарорига кўра тиббий тусдаги мажбурлов чоралари қўлланилган шахслар учун	Одам савдосидан қурбони учун	Атрофдагилар учун хавф туғдирмайдиган ижтимоий ахамиятли касалликлардан азоб чекувчи шахслар ҳамда қонун ҳужжатларга мувофиқ бошқа шахслар учун	оилавий зўравонлик натижида жабрланганлар
1	Тахиатош тумани	Qaraqalpaqstan nasos stantsiyalari va energetika boshqarmasi	200367732	907	7	3	2			1	1			
2	Тахиатош тумани	Abadanlastiriw basqarmasi	207261117	152	4	2				1	1			
3	Тахиатош тумани	Taqıyatas medicina birlespesi	200366891	688	9	4	4		1					

4	Тахиатош тумани	Тахиаташ жолларданпайдаланыу давлаткарханасы	305986763	81	3	3								
5	Тахиатош тумани	Taqıyatasrayonı 7-sanlımuzıkahámkórkemónermektebi	202043439	62	3		1		1					1
6	Тахиатош тумани	Taqıyatasrayonı Balalarhámóspirimlersportmektebi	300551271	95	2		1	1						
7	Тахиатош тумани	Taqıyataskásip-ónermektebi	200366647	53	2	1								1
8	Тахиатош тумани	Bárkamaláwladbalalarorayı	203260019	38	1	1								
9	Тахиатош тумани	1-sanlıorta bilimberiwmektebi	203260026	120	2	1	1							
10	Тахиатош тумани	2-sanlıorta bilimberiwmektebi	204255860	157	2	1	1							
11	Тахиатош тумани	3-sanlıorta bilimberiwmektebi	204255877	167	2	1		1						
12	Тахиатош тумани	4-sanlıorta bilimberiwmektebi	204255884	103	2	1	1							
13	Тахиатош тумани	6-sanlıorta bilimberiwmektebi	204029040	94	2	1	1							
14	Тахиатош тумани	7-sanlıorta bilimberiwmektebi	204029033	85	2	1	1							

15	Тахиатош тумани	8-sanlı orta bilim beriw mektebi	204029064	87	2	1	1							
16	Тахиатош тумани	9-sanlı orta bilim beriw mektebi	204255892	119	2	1	1							
Жами				**3008**	**47**	**22**	**15**	**2**	**2**	**2**	**2**			**2**

Taxiatosh tuman hokimining
2024-yil 8-noyabrdagi
281-13-215-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Taxiatosh tumani hokimining
2024-jıl “___” _____kungi
_____-sonli qaroriga 1-ilova

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarini 2025-yil uchun band etib qo‘yish bo'yicha maxsus komissiya.

A’ZOLARI

1.	K.Aytbayev	-	Tuman hokimi, komissiya raisi
2.	A.Amanov	-	Tuman hokimining o‘rınbosari, komissiya raisining o‘rınbosari
3.	G.Bekbergenova		Tuman hokimining o‘rınbosari, Xotin qizlar bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zolari
4.	M.Djangabayev	-	Tuman Kambag‘alliqni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, komissiya kotibi
5.	SH.Jumamuratov	-	Yoshlar ishlari agentligi, Taxiatosh tumani bo‘limi boshlig‘i, komissiyasi a’zosi

Eslatma: Komissiya a’zolarining lavozimi o‘zgargan taqdirda, ularning o‘rniga o‘sha lavozimiga tayinlangan yoki vazifasini bajarishga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.